



**AVESTODA ETNOGRAFIK MA'LUMOTLARNING AKS ETISHI:
ZARDUSHTIYLIK DINI BILAN BOG'LIQ URF ODAT MA'ROSIMLAR**

Avloqulova Charos

Mo'minova Sevinch

SHDPI tarix fakulteti 1-kurs talabalari

Abstract: This article discusses the emergence of the Zoroastrian religion, the history of its founder Zarathushtra, the gods of the Zoroastrian religion, the history of the Holy book of Avesta, and the essence of the book of Avesta.

Key words: Zarathustra, Pouroshasp, Dugdova, Ahuramazda, Ahriman, Avesta, Videvdat, Yasna, Yasht, Vologez, Gota.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zardushtiylik dinining paydo bo'lishi, uning asoschisi bo'lmish Zaratushtra tarixi, Zardushtiylik dinining xudolari, Muqaddas Avesto kitobi tarixi haqida, Avesto kitobining mazmun-mohiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Zardusht, Pouro'shasp, Dugdova, Axuramazda, Axriman, Avesto, Videvdat, Yasna, Yasht, Vologez, Gota.

Абстракт: В данной статье рассматривается возникновение зороастрийской религии, история ее основателя Заратуштры, богов зороастрийской религии, история Священной книги Авесты, а также сущность книги Авесты.

Ключевые слова: Заратустра, Пурошасп, Дугдова, Ахурамазда, Ариман, Авеста, Видевдат, Ясна, Яшт, Вологез, Гота.



Kirish. Prezidentimiz I.Karimov aytganidek: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganligiga 3000 yil bo'layabdi. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. Avesto ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech inkor eta olmaydi". Prezidentimizning bu so'zlarida albatta Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi Avesto ham chuqur o'rin egallaydi. Albatta Zardushtiylikning vatani ko'plab olimlar ta'kidlaganidek, bizning Turon zaminimiz hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Zardushtiylik dini va Avesto qayerda paydo bo'lganligi haqida olimlar o'rtasida haligacha munozaralar bo'lib o'tmoqda. Masalan, M.Is'hoqov o'z nazariy qarashlarida Zardusht bizning Xorazm o'lkasida yashaganligi to'g'risida ilmiy qarashlarini bayon etgan. Akademik, A.Asqarov ham Zaradushtning tug'ilgan joyi Xorazm yoki Sug'diyona bo'lishi mumkin deb o'zining "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi" kitobida bayon qilib o'tgan. O'zimizning Shahrisabzda tug'ilgan B.Eshov ustoz bo'lsa akademik, A.Asqarovning fikrini jonlantirib, "O'rta Osiyo viloyatlaridan birida, hech bo'lmaganda bu hududga qo'shni bo'lgan shimoli-g'arbiy Eron hududida tug'ilgan. Umuman olganda, Zaratushtraning vatani O'rta Osiyo- Xorazm yoki Baqtriya bo'lgan" deb aytib o'tadi o'zining "O'zbekistoda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi" kitobida. A.S.Sagdullayev o'zining "O'zbekiston tarixi" kitobida: "Zaratushtraning tug'ilgan joyi va vatani haqida "Avesto"da hech qanday ma'lumotlar yo'q" deb aytib o'tgan. Lekin Avestoda Zaratushtra urug'ining nomi, ota va onasining ismlari, oilasi va farzandlari haqida ma'lumotlar mavjudligi Sagdullayevning kitobida bayon etilgan. Umuman olganda O'zbekistonning qator tarixchi va arxeolog olimlari Zardushtiylik va Avesto haqida qator ilmiy fikrlar va nazariyalar aytib o'tmoqda.



Metodologiya. Ushbu maqolada internet manbalari, o'quv qo'llanmalar va ilmiy asarlar asosida tarixiy shaxslarga va ularning tarixiy davrlariga qiyosiy lashtirish va undagi fikrlarni tahlil qilish maqsadida faoliyat olib borildi.

Dolzarbli. Bugungi kunda yosh avlodlarni qadimiy tariximizni bilish uchun albatta Zardushtiylik va Avestoning tarixini bilishi kelajak avlodlolar uchun O'zbekistonning qadimiy tarixini yo'qolmasligi uchun katta xizmat qiladi. Chunki biz O'zbekistonning eng qadimiy shaharlari- Baqtriya, Xorazm, Sug'diyonani albatta Avestodan bilamiz. Professor M.Is'hoqov aytganidek: " G'arb Sharqning tarixini Avestodan tanidi".

Muhokama. Zardushtiylik eng qadimgi dinlardan biri hisoblanadi. Olimlarning ta'kidlashicha, Zardushtiylik dini miloddan avvalgi 1-ming yillikda paydo bo'lgan. A.Asqarovning arxeologik qazishuv ishlariga qaraganda Jarqo'ton shahridan Zardushtiylik dini ibodatxona izlari topilgan. Olimning ta'kidlashicha, Zardushtiylik dini bronza davriga paydo bo'lgan. Avestoda aks etgan asosiy qonun-qoidalar, diniy e'tiqodning etakchi tushunchalari tarixiy shaxs Zaratushtra nomi bilan bog'liq. Uning nomi qadimgi eroncha " zarat " va " ushtra " so'zlaridan tashkil topgan. "Zarat "- sariq, " ushtra"- tuya, ya'ni " sariq tuya yetaklagan odam" degan ma'nosini anglatadi. Ilmiy qarashlarga ko'ra Zaratushtra afsona emasligi balki, tarixiy shaxs va arbob siyosatchi ekanligi ta'kidlanmoqda. Zaratushtra o'zining yangi diniy ta'limotini insonlarga yoymoqchi bo'ladi. Lekin o'sha paytda Makedoniyaliklar orasida yunon madaniyati va dini yuksak darajaga ko'tarilgan edi. Shuning uchun yunonlar va makedonlar Zaratushtrani o'ldirmoqchi bo'ladilar.Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, Makedon podsholari tomonidan Zaratushtrani qo'li chopib tashlanganligi to'g'risida taxminlar bor. Zardushtiylikning diniy falsafasi qarama-qarshi kuchlarning kurashiga asoslangan. Bu kurash xudolar o'rtasida boshlanib, tabiatda va insoniyat hayotida ham davom etgan. O'shandan boshlab, yaxshilik va yomonlik, rost va yolg'on, yorug'lik va zulmat o'rtasida doimiy va murosasiz kurash boshlangan deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida yaxshilik va oliy xudo Axuramazda hisoblangan.



Yomonlik xudosi esa Axriman bo'lgan. Avestoda yozilishicha Zaratushtraning otasining ismi Pouro'shasp, onasining ismi Dugdova bo'lgan. Otasi kohinlar tabaqasiga mansub bo'lgan. Zaratushtra e'tiqodini qabul qilgan birinchi tarafdorlari – bu qadimgi Baqtriya bodshosi Kavi Vishtasp malika Xutaosa va ularning yaqin qarindoshlaridir. Avesto- Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, shu dindagi xalqlarning axloq, odob, diniy qonun qoidalari majmuasidir. Dastlab Avesto 21 kitobdan iborat bo'lgan, bizgacha uning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan. Masalan, Yasna, Visprat, Yasht, Videvdat. Yasna kitobi 72 bobdan iborat bo'lib, ulardan 17 tasi “Gota”lar payg'ambar Zaratushtraning “ muqaddas madhiyalari “ va diniy nasihatlaridan iborat. “Vesprat” kitobi 21 bobdan iborat. Unda zardushtiylarning bayram va diniy marosimlarda ijro etiladigan ayrim madhiyalari to'plangan. “Yasht” kitobi 21 bobdan iborat bo'lib, unda eroniy qabilalarining madhiyalari to'plamidir. “Vedevdat” kitobi 22 bobdan iborat bo'lib, unda “devlarga qarshi kurash” qoidalari haqida gap boradi. Bazi olimlar Aleksandr Makedoniskiy qadimgi fors sulolasini tor-mor etganidan so'ng Avestoning eski qismlari yo'q qilingan deb hisoblaydilar. Ammo Parfiya podshosi Vologez davrida bu kitobning qolgan qutgan qismlari to'planadi. Avesto mustaqillik yillarida turli tillarga tarjima qilindi. Shu jumladan tarixchi professor M.Is'hoqov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

XULOSA. Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi Avesto Turon zaminiga yangi madaniyat, e'tiqod va eng asosiysi ezgu odob-axloq olib kirdi. Shuni takidlab o'tish zarurki, zardushtiylik qadimgi davrimizni o'rganadigan eng murakkab kitob hisoblanadi. Zardushtiylik dinining urf –odatlarini xalqimiz ongiga singishib ketgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Asqarov. “O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi”. Toshkent-2007.
2. A.Sagdullayev. “O’zbekiston tarixi”. Toshkent- 2020.
3. R. H.Murtazayeva “O’zbekiston tarixi”. Toshkent -2003.
4. B.Eshov. “O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi”. Toshkent- 2019.
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. Oriental Journal of Social Sciences, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME’MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 538-546.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES, 2(9), 57-62.
9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 11(10), 25-29.
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO‘LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. Science and innovation, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. TAMADDUN NURI JURNALI, 11(62), 268-270.



13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.